



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI VAZIRLIGI
DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI MARKAZI
ANDIJON VILOYATI FILIALI**

Manzil: 170128, Andijon shahar, Kunchilik ko'chasi, 75-uy, Tel: 74 237-07-00

**DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI
XULOSASI**

TARTIB RAQAM 01-02/03-3803

HUJJAT TURI Atrof-muhitga ta'sir to'g'risidagi ariza loyihasi

**Davlat ekologik ekspertizasi buyurtmachisi: "O'ZBEKTELEKOM " AKSIYADORLIK
JAMIYATIga berildi.**

STIR: 203366731

Obyekt nomi: Oltinko'l tuman Maqsad MFY hududi bo'yicha jami 3200 metr optik tolali aloqa kabellari yotqizilishi, GPON texnologiyasi asosida optik tolali aloqa liniyasini tashkil etish bo'yicha tayyorlangan AMTTB loyihasi.

**Loyihalarini ishlab chiquvchi nomi: "O'ZBEKTELEKOM " AKSIYADORLIK
JAMIYATI**

STIR: 203366731

**Davlat ekologik ekspertizasi mas'ul eksperti: TURDIYEV SHERMIRZA
NURMIRZAYEVICH**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori bilan tasdiqlangan 1-ilovaga muvofiq, ushbu davlat ekologik ekspertizasi obyekti atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning IV toifa toifasining 14-bandiga mansub.

O'tkazilgan davlat ekologik ekspertizasi natijasi: **Ijobiy xulosa**

Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi: **Ilovasiz huquqiy hujjat hisoblanmaydi**

Berilgan sana: 08.04.2025

Amal qilish muddati: 08.04.2028

Ekologik ekspertiza obyektining ekologik talablarga muvofiqligi, joylashuv nuqtalari koordinatalari, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlari, bajarilishi shart bo'lgan talablar va boshqalar to'g'risida ilovada keltirilgan O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining Davlat ekologik ekspertiza markazi va filiallarining ekspert xulosasi ushbu davlat ekologik ekspertizasi xulosasining ajralmas qismi hamda unda belgilangan talablar bajarilishi shart hisoblanadi.

Izoh: Buyurtmachi tomonidan davlat ekologik ekspertizasi xulosasida nazarda tutilgan ekologik talablarga rioya etilmaganda, davlat ekologik ekspertizasi xulosasi qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilinadi.

Direktor



A.Mamanazarov

Davlat ekologik ekspertizasi natijalari bo'yicha Ekspert xulosasi talablari

Obyekt hududida ko'p yillik daraxtlar mavjud bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktabrdagi PF-5863 sonli va 2021 yil 3 fevraldagi PF-6155 sonli hamda 2021 yil 30 dekabrda PF-46 sonli farmonlari talablariga qat'iy amal qilish.

Obyekt hududida ko'p yillik daraxt va butalarni saqlab qolish va zarar yetkazmaslik.

Optik tolali aloqa kabellari va optik mufta o'rnatish ishlari davomida yer osti va yer usti muhandislik kommunikatsiya tarmoqlariga zarar yetkazilishini oldini olish.

Obyekt hududida har qanday chiqindi turlari yoqilishi qat'iy ta'qiqlanadi.

Obyekt qurilishi natijasida hosil bo'ladigan tuproqning unumdor qatlami qishloq xo'jaligi yerlarida va qolgan qismi (tuproq, shag'al va qumlar) mavjud kar'erni rekultivatsiya qilinishi uchun ishlatilishi kerak.

Obyekt hududida daraxt kesish qat'iy man etiladi.

Obyekt faoliyati davomida hosil bo'ladigan chiqindilarni vaqtincha joylashtirish va chiqindilarni hududdan o'z vaqtida qayta ishlash va utilitatsiya qilish uchun olib chiqib ketilishini ta'minlash.

Obyekt hududida har qanday chiqindi turlari yoqilishi ta'qiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 2 oktyabrdagi "Maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №787-qarori talablarini bajarilishi.

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 28 yanvardagi "Qurilish chiqindilari bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №40-sonli qarori talablarini bajarish.

Xosil bo‘ladigan chiqindilarni temir konteynirli chiqindi to‘plash qutilari vaqtincha to‘plash va ruxsat etilgan axlatxonaga chiqarib yuborish ishlarini tashkil etish.

Obyekt uchun ajratilgan yer maydoni bilan aholi yashash uylari va noturar bino va inshootlar orasidagi masofa, ShNQ talablari hamda SanPinRUz №0350-17 talablariga asosan oraliq masofani saqlash.

Mazkur obyekt faoliyati yoki turi o‘zgartirilgan taqdirda qaytadan ekologik ekspertizadan o‘tkazish.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilmaganligi va loyihadagi ma’lumotlar haqqoniyligiga, to‘g‘riligiga korxona rahbari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi Qonunning 22-moddasiga binoan, ushbu obyektning ekologik talablarga muvofiqligi xususida Davlat ekologik ekspertizasining bergan xulosasi, berilgan kundan e’tiboran 3 yil mobaynida yuridik kuchga ega.

Davlat ekologik ekspertizasi xulosasida ko‘rsatilgan talablar buyurtmachi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi Qonunning 9-moddasiga asosan bajarilishi shart.



Ma’sul ekspert: TURDIYEV SHERMIRZA NURMIRZAYEVICH
Tel: 998934182620

Obyekt haqida qisqacha ma'lumot

“Davlat ekologik ekspertizasi markazi” Andijon viloyati filialiga optik tolali aloqa kabellari tortish va splitter o'rnatilishi bo'yicha tayyorlangan Anketa ma'lumotnomasi, qurilishga oid hujjatlar va chizmasi taqdim etildi.

Oltinko'l tuman Maqsad MFY hududi bo'yicha jami 3200 metr optik tolali aloqa kabellari yotqizilishi, GPON texnologiyasi asosida optik tolali aloqa liniyasini tashkil etish rejalashtirilgan.

Optik tolali aloqa tarmog'i tortiladigan va splitter o'rnatiladigan hududda yer usti yoki yer osti obyektlarini kesib o'tish joylari yoki ochiq suv havzalari hamda temir yo'llari umuman mavjud emas.

Obyekt qurilish ishlari uchun tayyor holda optik tola, optik tola uzish va ulash uchun maxsus qurilmalardan foydalaniladi.

Obyekt yer maydoni reliefi tinch va tekis. Tariflanayotgan hudud, Farg'ona vodiysining tekis geostruktura sohasida joylashgan. Yerning ustki qatlami absolyut belgisi 460 dan 470 metrgacha. 9 ballik seysmik hududga kiradi. Iqlimi o'ta kontinentalligi bilan tavsiflanadi. Yer osti suvlari 3-5 metr chuqurlikda joylashgan.

Hududning iqlim sharoitlar o'zining kontinentalligi bilan tavsiflanadi.

Loyihalananayotgan obyekt hududidagi qurilish maydonida hozirgi kunda ko'p yillik manzarali kesilishi ko'zda tutilgan daraxtlar mavjud emas. Hayvonot olami vakillaridan sut emizuvchilar, sudralib yuruvchilar va qushlarning bir necha turlari mavjud. Ushbu hududda Xalqaro va O'zbekiston “Qizil kitobi” ga kirgan o'simlik va hayvonot dunyosi vakillari mavjud emas. Hayvonot olamining migratsiya yo'nalishi ushbu hududdan o'tmagan.

Mazkur yer maydonining “Google Earth Pro” dasturi orqali olingan geografik joylashuvi koordinatalari quyidagicha: 1) 40.814877 72.237089, 2) 40.813318 72.241553, 3) 40.811044 72.239751, 4) 40.810654 72.236574.

Optik tolali aloqa kabellari yer ustida tortib boriladi. Umumiy uzunligi 3200 metrni tashkil qilib, aloqa kabellari Maqsad ko'chasida joylashgan mavjud muftadan chiqib ushbu ko'chada joylashgan mavjud havo elektr tarmoqlari uchun o'rnatilgan beton tayanchlar orqali yer usti bo'ylab, Go'zal hayot va Hayotbaxsh ko'chasi yo'l cheti bo'ylab tortib borilib so'ng ulanadi. Ushbu hududda optik tolali aloqa liniyasini tashkil etish rejalashtirilgan.

Ushbu loyihalananayotgan obyektning qurilishining tugallanish davri 3 oy. Obyektning qurilish davri tugaguniga qadar 7 nafar ishchi qurilish ishlarida ishlashi rejalashtirilgan. Obyektida muntazam ravishda 3 dona ishchi ishlashi ko'zda tutilgan.

Obyektning qurilish natijasida atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar tashlovchi manbaalar mavjud.

Obyektning muhandislik kommunikatsiya tizimi quyidagicha hal qilinishi rejalashtirilgan: ichimlik suv ta'minoti tuman suv tarmog'idan olinadi.

Qurilish davrida ishchilarning xo'jalik va ichimlik ehtiyoji uchun suv sarfi – $0,084 \text{ m}^3/\text{kun}$ yoki $0,00754 \text{ m}^3/\text{davri}$ ni tashkil etadi. Oqova suvlari maxsus sig'implarda to'planib, kelgusida suv tozalash inshootlariga tashib ketilishi mo'ljallangan. Ekspuluatatsiyadan so'ng ishchilar uchun xo'jalik va ichimlik suv sarfi – $0,036 \text{ m}^3/\text{kunni}$ tashkil qiladi.

Obyekt qurilishi davomida quyidagi chiqindilar hosil bo'lishi kutiladi. Qattiq maishiy chiqindilar – $0,35 \text{ tn/davr}$, ishlatilgan maxsus kiyim chiqindisi – $0,0105 \text{ tn/yil}$, artish mato chiqindisi – $0,06 \text{ tn/davr}$, qora metal chiqindisi – $0,1 \text{ tn/davr}$, rangli metal chiqindilari $0,03 \text{ tn/davr}$ hosil bo'lishi kutiladi. Maishiy va supirindi chiqindilar maxsus ajratilgan konteynerlarda vaqtincha saqlanadi va ruxsat etilgan tuman axlatxonalariga chiqarib tashlanadi. Obyekt ekspuluatatsiyasidan so'ng ishchilardan hosil bo'ladingan qattiq maishiy chiqindilari – $0,15 \text{ tn/yil}$, mahsus kiyim chiqindisi $0,0045 \text{ tn/yilni}$ tashkil qiladi.

Obyekt faoliyati natijasida, AMTTB loyihasida ko'rsatilgandek hosil bo'lishi kutilgan qattiq maishiy chiqindilar maxsus konteynerlarda vaqtincha saqlanib, ruxsat etilgan tuman axlatxonasiga chiqarib tashlanishi rejalashtirilgan. Obyekt faloliyat davomida, moyga to'yingan mato qoldiqlari, qora va rangli metall chiqindilari to'planishi mumkin. Mazkur chiqindilar ikkilamchi xom-ashyo qabul qilish punktlariga topshirilishi kerak.

Atrof muhitga ta'siri chiqindilarni tartibsiz tashlanishi bo'lib, bunday holatlarni oldini olish Andijonida qurilish maydonchalariga maxsus chiqindi to'plash konteynerlarini o'rnatilishi talab etiladi.

“Davlat ekologik ekspertizasi markazi” ning Andijon viloyati filiali, Oltinko'l tuman Maqsad MFY hududi bo'yicha jami 3200 metr optik tolali aloqa kabellari yotqizilishi, GPON texnologiyasi asosida optik tolali aloqa liniyasini tashkil etish bo'yicha tayyorlangan AMTTB loyihasini **ro'yobga chiqarilishini ma'qullaydi.**

Ushbu xulosada ko'rsatilgan atrof-muhitni muhofaza qilish talablarini bajarish yuzasidan nazorat qilish Oltinko'l tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limiga yuklatiladi.

Loyihaning maqbulligi to'g'risidagi Davlat ekologik ekspertizasining xulosasi qonunda belgilangan tartibda davlat idoralari va tashkilotlardan tegishli ruxsatnomalarni olish zaruratini almashtirmaydi yoki bekor qilmaydi.



Ma'sul ekspert: TURDIYEV SHERMIRZA NURMIRZAYEVICH
Tel: 998934182620